

2023- yil yanvar –aprel oyi uchun
dastlabki ma'lumot



FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi boshqarmasi:
(73) 241-97-68



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-aprel oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **571,4 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **119,6 mln. AQSH** dollariga yoki **17,3 %** ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **571,4 – 17,3 %**

(2022- y.: 691,0)



Saldo

2023- y.: - **228,5**
(2022 y.: - 218,6)



Eksport

2023- y.: **171,5 - 27,4 %**

(2022- y.: 236,2)



Tovarlar: **169,2**



Xizmatlar: **2,3**



Import

2023- y.: **399,9 - 12,1 %**

(2022- y.: 454,8)



Tovarlar: **398,8**



Xizmatlar: **1,1**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **171,5** mln. AQSH dollariga (**27,4** % ga kamaydi) va import hajmi **399,9** mln. AQSH dollariga (**12,1** % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida **-228,5** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



FARG‘ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

Rossiya TSA – 155,2 Eksport: 56,6 Import: 98,6  27,2 %	XXR TSA – 135,9 Eksport: 10,9 Import: 125,0  23,8 %	Qozog‘iston TSA – 75,2 Eksport: 11,3 Import: 63,9  13,2 %	Turkiya TSA – 35,2 Eksport: 17,8 Import: 17,4  6,2 %	Qirg‘iz Respublikasi TSA – 28,1 Eksport: 13,7 Import: 14,4  4,9 %
Afg‘oniston TSA – 15,5 Eksport: 15,3 Import: 0,2  2,7 %	Tojikiston TSA – 13,6 Eksport: 9,6 Import: 4,0  2,4 %	Litva TSA – 12,6 Eksport: 2,8 Import: 9,8  2,2 %	Eron TSA – 11,5 Eksport: 9,6 Import: 1,9  2,0 %	Polsha TSA – 9,5 Eksport: 3,7 Import: 5,8  1,7 %

Farg'ona viloyati jahonning **63** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hisssasi Rossiyada (**27,2 %**), XXRda (**23,8 %**), Qozog'istonda (**13,2 %**), Turkiyada (**6,2 %**), Qirg'iz Respublikasida (**4,9 %**) va Afg'onistonda (**2,7 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston va Qozog'iston bilan **1,2** barobarga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Afg'oniston – 15,1



Eron – 7,7



Tojikiston – 5,6



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Eron va Tojikiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **14** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



FARG'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Rossiya	76,2	165,8	155,2
<i>Eksport</i>	37,0	60,3	56,6
<i>Import</i>	39,2	105,5	98,6
XXR	138,0	182,2	135,9
<i>Eksport</i>	36,3	32,8	10,9
<i>Import</i>	101,7	149,4	125,0
Qozog'iston	62,7	104,1	75,2
<i>Eksport</i>	3,8	6,4	11,3
<i>Import</i>	54,4	97,7	64,0
Turkiya	32,1	56,9	35,2
<i>Eksport</i>	17,9	39,0	17,8
<i>Import</i>	14,2	17,9	17,4
Qirg'iz Respublikasi	27,3	38,6	28,1
<i>Eksport</i>	14,3	19,0	13,7
<i>Import</i>	13,0	19,6	14,4
Afg'oniston	6,0	15,4	15,5
<i>Eksport</i>	6,0	15,4	15,3
<i>Import</i>	-	-	0,2
Tojikiston	9,7	8,9	13,6
<i>Eksport</i>	5,6	5,4	9,6
<i>Import</i>	4,1	3,5	4,0
Litva	2,2	8,2	12,6
<i>Eksport</i>	0,4	0,6	2,9
<i>Import</i>	1,8	7,6	9,8
Eron	3,0	9,6	11,5
<i>Eksport</i>	1,6	8,3	9,6
<i>Import</i>	1,4	1,2	1,9
Polsha	11,3	16,2	9,5
<i>Eksport</i>	9,5	11,2	3,8
<i>Import</i>	1,8	5,0	5,8

Davomi




	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Germaniya	6,6	6,6	9,3
	<i>Eksport</i>	0,6	2,2	1,3
	<i>Import</i>	6,0	4,4	8,1
	Hindiston	2,7	5,8	7,2
	<i>Eksport</i>	0,3	0,0	0,0
	<i>Import</i>	2,3	5,8	7,2
	Belarus	2,5	4,7	7,0
	<i>Eksport</i>	1,5	1,7	3,0
	<i>Import</i>	1,0	3,0	4,0
	Koreya Respublikasi	9,5	11,5	6,4
	<i>Eksport</i>	2,6	1,9	0,2
	<i>Import</i>	6,9	9,6	6,2
	Italiya	3,5	5,3	6,2
	<i>Eksport</i>	0,5	0,9	3,0
	<i>Import</i>	3,0	4,3	3,2
	Syangan	0,3	1,3	5,5
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,3	1,3	5,5
	Shveytsariya	3,0	1,6	5,1
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	3,0	1,6	5,1
	Ispaniya	0,9	1,6	4,1
	<i>Eksport</i>	0,0	0,5	0,1
	<i>Import</i>	0,9	1,1	4,0
	Latviya	1,2	0,9	2,3
	<i>Eksport</i>	1,0	0,8	2,0
	<i>Import</i>	0,2	0,1	0,3
	AQSh	0,6	0,6	2,2
	<i>Eksport</i>	0,1	0,3	0,7
	<i>Import</i>	0,5	0,3	1,5



FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel)*

	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	571,4	82,7
Farg'ona sh.	88,6	44,7
Qo'qon	109,5	80,0
Quvasoy	12,5	89,4
Marg'ilon	38,9	121,2
tumanlar		
Oltiariq t.	23,4	136,0
Qo'shtepa	30,4	138,6
Bag'dod	16,9	2,8 m.
Buvayda	8,9	87,0
Beshariq	15,4	72,1
Quva	13,3	92,4
Uchko'prik	90,6	136,1
Rishton	9,1	180,0
So'x	2,0	139,2
Toshloq	54,9	74,1
O'zbekiston	15,6	98,9
Farg'ona	15,8	66,1
Dang'ara	18,4	98,9
Furqat	5,0	47,7
Yozyovon	1,2	54,3

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari




Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qoqon shahri **19,2 %** ulush bilan **109,5** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yozyovon tumani **0,2 %** ulush bilan **1,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



FARG'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **49,6 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **15,8 %** ga kamaydi.



Farg'ona viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **19,0 %** ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **50,4 %** ni tashkil etdi.

Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, **283,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **97,7** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **185,7** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



FARG'ONA VILOYATNING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel , mln. AQSH dollari)

Rossiya

TSA - 155,2
Eksport – 56,6
Import – 98,6



Qozog'iston

TSA – 75,2
Eksport – 11,3
Import – 63,9



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 28,1
Eksport – 13,7
Import – 14,4



Belarus

TSA – 6,9
Eksport – 2,9
Import – 4,0



Tojikiston

TSA – 13,6
Eksport – 9,6
Import – 4,0



Ukraina

TSA – 1,4
Eksport – 1,1
Import – 0,4



Turkmaniston

TSA – 0,6
Eksport – 0,3
Import – 0,3



Ozərbayjan

TSA – 1,0
Eksport – 1,1
Import – 0,0



Moldova

TSA – 0,5
Eksport – 0,5
Import – 0,0



Armaniston

TSA – 0,7
Eksport – 0,7
Import – 0,0



Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**54,7 %**), Qozog'iston (**26,5 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**9,9 %**) davlatlari bilan qayd etildi.




FARG'ONA VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **451** taga yetdi va ular tomonidan **171,5** mln. AQSH dollari (2022- yilning mos davriga nisbatan **27,4** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	236,2	171,5	137,0	72,6	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	34,1	44,7	199,6	131,1	14,4	26,1
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,6	175,6	248,9	0,1	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	13,0	7,8	154,6	60,0	5,5	4,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,2	1,3	354,7	30,1	1,8	0,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,0	2254,7	0,6	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	10,2	8,5	269,2	83,0	4,3	5,0
Sanoat tovarlari	151,0	81,8	124,7	54,1	63,9	47,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	2,0	2,0	206,8	100,8	0,8	1,2
Turli xil tayyor buyumlar	18,9	22,5	113,5	112,9	8,0	13,1
Xizmatlar	2,4	2,3	77,1	97,4	1,0	1,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **86,9 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**47,7 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**26,1 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**13,1 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	22,9	111,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,9	15,3
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	-	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,5	5,0 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,6	2,4 m.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2,9	49,6
Metal rudalar va metal parchalari	0,4	12,8
Qog'oz massasi va makulatura	3,5	109,6
Xayvonlar va usimliklardan kelib chikkan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,5	144,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1,3	30,9
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	0,8	2,1 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,4	2,1 m.
O'g'itlar	4,6	53,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,9	3,9 m.


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	16,8	11,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	3,2	3,3 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4,6	83,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4,2	69,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,7	162,0
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari)	0,5	39,9
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	0,6	3,1 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	113,3
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	15,9	121,4
Har xil tayyor buyumlar	1,7	90,2
Poyabzal	1,0	36,6
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	0,6	76,1

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlariga **97,7** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **61,0** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston, Qozog'iston, XXR va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy Eksportdagi **ulushi 78,9** % ni tashkil etdi.



FARG'ONA VILOYATIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel, % da)





FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rne	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	60,3	56,6	162,8	93,9	1	1
Turkiya	39,0	17,8	2,1 m.	45,7	2	2
Afg'oniston	15,4	15,3	2,6 m.	99,4	5	3
Qirg'iz Respublikasi	19,0	13,7	133,2	72,1	4	4
Qozog'iston	6,4	11,3	76,2	177,4	10	5
XXR	32,8	10,9	90,3	33,3	3	6
Eron	8,3	9,6	5,2 m.	115,4	7	7
Tojikiston	5,4	9,6	97,6	177,5	11	8
Polsha	11,2	3,8	118,1	33,5	6	9
Belarus	1,7	3,0	116,4	173,1	16	10
Italiya	0,9	3,0	177,5	3,2 m.	19	11
Litva	0,6	2,9	144,4	4,7 m.	24	12
Latviya	0,8	2,0	77,1	2,6 m.	22	13
Pokiston	2,4	1,8	28,0	73,6	13	14
Germaniya	2,2	1,3	3,9 m.	57,4	14	15
Gruziya	0,1	1,1	191,3	7,9 m.	40	16
Ukraina	0,5	1,1	49,5	2,2 m.	28	17
Ozarbajjon	0,5	1,0	184,0	195,2	27	18
Armaniston	0,6	0,7	5,4 m.	115,8	25	19
AQSh	0,3	0,7	2,1 m.	2,4 m.	34	20

FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-aprel)*

	Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	171,5	72,6
Farg'ona sh.	15,9	74,3
Qo'qon	26,2	42,6
Quvasoy	3,1	54,7
Marg'ilon	3,0	52,7
tumanlar		
Oltiariq t.	11,3	2,1 m.
Qo'shtepa	20,3	127,9
Bag'dod	8,7	2,7 m.
Buvayda	4,1	69,1
Beshariq	7,2	2,2 m.
Quva	10,1	107,3
Uchko'prik	22,0	112,2
Rishton	2,4	58,9
So'x	1,3	93,4
Toshloq	12,0	28,0
O'zbekiston	7,1	164,6
Farg'ona	6,0	39,1
Dang'ara	6,8	117,6
Furqat	2,1	49,7
Yozyovon	1,0	89,9

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Qo'qon sh. 26,2

Uchko'prik 22,0

Qo'shtepa 20,3

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Yozyovon 1,0

So'x 1,3

Furqat 2,1

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Qo'qon shahri **15,3 %** bilan **26,2** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yozyovon tumani **0,6 %** bilan **1,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-aprel oylarida **46,3** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,2** barobarga yoki **10,1** ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (**56,4** %), Qozog'iston (**26,4** %), hamda Qirg'iz Respublikasi (**5,7** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-aprel oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **26,0 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **24,9** % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **15,2** % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-aprel, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum yangi uzilgan 1,3 mln. AQSH dollari 1,6 ming tonna  13,3 % ↑	Quritilgan olma 1,2 mln. AQSH dollari 3,4 ming tonna  100 % ↑	Limon 0,8 mln. AQSH dollari 1,0 ming tonna  28,9 % ↑	Pomidor 2,9 mln. AQSH dollari 3,1 ming tonna  9,3 % ↓
Uzum quritilgan 3,8 mln. AQSH dollari 5,5 ming tonna  3,7 m. ↑	Piyoz 1,8 mln. AQSH dollari 7,9 ming tonna  2,1 m. ↑	Karam 1,3 mln. AQSH dollari 4,9 ming tonna  51,3 % ↓	Olxo'ri quritilgan 2,7 mln. AQSH dollari 1,4 ming tonna  48,1 % ↑



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar- aprel)

Davlatlar	ming tonna	mln. AQSH dollari	ulushi, % da *
 Rossiya Federatsiyasi	15,8	12,9	56,4
 Qozog'iston	20,4	6,1	26,4
 Qirg'iz Respublikasi	5,3	1,3	5,7
 Belarus	0,5	0,6	2,5
 Boshqalar	2,0	2,1	9,1



* qiymat ifodasidan

2023- yil yanvar-aprel oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **56,4 %** i), Qozog'istonga eksport hajmi **26,4 %** ga teng.





TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-aprel oylari yakuni bo'yicha **33,0 mln.** AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **19,2 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **79,0 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (**43,6 %**), paxtadan gazlamalar (**12,4 %**) va trikotaj mato (**18,0 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **127** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **21** ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



	2022-yil	2023-yil
Jami	157,0	33,0
Paxtadan yigirilgan ip	122,0	0,0
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	12,7	15,9
Gilamlar	1,8	1,3
Trikotaj mato	4,3	5,9
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	2,7	3,2
Paxtadan gazlamalar	9,1	4,1
Ipak va ipak mahsulotlari	2,0	1,6
Paxta mahsulotlari	2,0	0,8

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



	2022- yil	2023- yil	Ulushi, % da *
 Rossiya Federatsiyasi	37,9	12,2	36,9
 Qirg‘iz Respublikasi	7,1	4,9	14,9
 Italiya	0,9	3,0	8,9
 Tojikiston	1,3	2,2	6,7
 Belarus	0,9	1,9	5,8
 Polsha	10,8	1,8	5,4
 Ukraina	0,1	1,0	3,1
 Litva	0,3	1,0	3,0
 Qozog‘iston	0,6	0,7	2,2
 Germaniya	2,0	0,7	2,2
 Ozarbayjon	0,3	0,7	2,0
 Armaniston	0,6	0,6	1,8
 Cheh Respublikasi	0,7	0,6	1,7
 Moldova Respublikasi	0,3	0,5	1,6
 Boshqa davlatlar	93,1	1,2	3,7



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya (**36,9 %** – **12,2** mln. AQSH dollari) va Qirg‘iz respublikasi (**14,9 %** – **4,9** mln. AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Transport xizmatlari 54,3 %



Moliyaviy xizmatlar 27,5 %



Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari 10,6 %



Safarlar (turizm) 7,6 %



Xizmatlar eksporti hajmi **2,3** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **1,4** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,6** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**7,6** %), transport (**54,3** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**10,6** %) va moliyaviy xizmatlar (**27,5** %) hissasiga to'g'ri kelgan.




FARG'ONA VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi **399,9** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **87,9** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (**27,5** %), sanoat tovarlari (**23,3** %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**16,7** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **55,1** mln. AQSH dollariga kamaydi va **398,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **1,1** mln. AQSH dollariga yetdi.



FARG'ONA VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	454,8	399,9	158,2	87,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	57,3	66,6	146,3	116,3	12,6	16,7
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,1	2,7 m.	46,7	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,4	13,9	160,6	134,4	2,3	3,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	122,8	54,1	2,1 m.	44,0	27,0	13,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	4,5	27,9	3,6 m.	0,3	1,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	20,3	32,6	138,2	160,4	4,5	8,1
Sanoat tovarlari	88,5	93,3	130,6	105,4	19,5	23,3
Mashinalar va transport asbob- uskunolari	137,5	109,9	161,2	79,9	30,2	27,5
Turli xil tayyor buyumlar	15,7	23,8	154,0	151,8	3,4	6,0
Xizmatlar	0,9	1,1	37,8	128,9	0,2	0,3



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	39,9	118,4
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	2,2	125,4
Sabzavotlar va mevalar	5,7	116,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3,0	70,4
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,1	46,7
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
56 bulimga kiritilgandan tashqari ug'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va kimmatbaxh toshlardan tashqari)	2,7	83,3
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato xolatiga keltirilmagan)	2,5	5,0 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	0,4	47,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	46,3	38,9
Ko'mir, koks va briketlar	6,0	160,8
Xayvonlar va usimliklar moylari (yoglari), yoglar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	4,5	3,5 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2,7	78,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	6,5	105,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	8,9	3,4 m.
Noorganik kimyo moddalari	2,6	75,9


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	28,7	92,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	8,1	66,1
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	15,2	91,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	3,8	56,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	1,8	150,8
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	37,7	56,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	26,4	92,7
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	10,1	91,4
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3,0	65,4
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	3,6	45,0
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1,3	111,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	0,2	111,8



2023- yil yanvar-aprel natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **46,4** % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **20,5** % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida Farg'ona viloyati **58** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Germaniya va Litva) jami importning **84,3** % tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel % da)





FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)




Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	149,4	125,0	146,9	83,7	1	1
Rossiya	105,5	98,6	2,7 m.	93,4	2	2
Qozog'iston	97,7	64,0	179,8	65,5	3	3
Turkiya	17,9	17,4	126,4	96,8	5	4
Qirg'iz Respublikasi	19,6	14,4	151,3	73,6	4	5
Litva	7,6	9,8	4,3 m.	129,1	7	6
Germaniya	4,4	8,1	72,7	182,7	10	7
Hindiston	5,8	7,2	2,5 m.	124,5	8	8
Koreya Respublikasi	9,6	6,2	140,6	65,1	6	9
Polsha	5,0	5,8	2,7 m.	116,0	9	10
Gonkong	1,3	5,5	4,8 m.	4,2 m.	19	11
Shveytsariya	1,6	5,1	54,7	3,1 m.	18	12
Ispaniya	1,2	4,0	136,0	3, m.	21	13
Tojikiston	3,5	4,0	84,4	114,4	12	14
Belarus	3,0	4,0	3,0 m.	132,4	13	15
Italiya	4,3	3,3	143,4	75,0	11	16
Belgiya	0,3	2,3	4,6 m.	8,1 m.	30	17
Eron	1,2	1,9	84,4	157,8	20	18
AQSh	0,3	1,5	73,2	4,5 m.	27	19
Niderlandiya	0,3	1,5	30,1	4,6 m.	28	20





FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-aprel)

	Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	399,9	87,9
Farg'ona sh.	72,7	41,1
Qo'qon	83,3	110,5
Quvasoy	9,4	113,4
Marg'ilon	35,8	136,0
tumanlar		
Oltiariq t.	12,1	101,6
Qo'shtepa	10,1	166,4
Bag'dod	8,2	2,8 m.
Buvayda	4,9	110,8
Beshariq	8,2	45,5
Quva	3,2	64,2
Uchko'prik	68,6	146,0
Rishton	6,6	7,2 m.
So'x	0,7	13 m.
Toshloq	43,0	137,3
O'zbekiston	8,5	74,2
Farg'ona	9,8	113,8
Dang'ara	11,6	90,5
Furqat	2,9	46,3
Yozyovon	0,2	17,3

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qoqon shahri **18,2** % bilan **83,3** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yozyovon tumani **0,0** % bilan **0,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI

2023- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **109,9** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **20,1** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **27,5** % ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel)



XXR
49,7 mln.
AQSH. dollari



Turkiya
9,8 mln.
AQSH. dollari



Litva
5,5 mln.
AQSH. dollari



Germaniya
4,7 mln.
AQSH. dollari




2023- yil yanvar-aprel oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **27,6** mln. AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Farg'ona viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **49,7** mln. AQSH dollari (**45,2** %), Turkiya — **9,8** mln. AQSH dollari (**8,9** %) va Litva – **5,5** mln. AQSH dollari (**5,0** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI







2023- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **93,3** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,4** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **23,3** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**28,7** mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**8,1** mln. AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**15,2** mln. AQSH dollari), qog'oz va karton (**3,8** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.